

XX ASR YEVROPA BADIY MAKTABLARI VA ULARNING MARKAZIY OSIYO SAN'ATIGA TA'SIRI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.011>

Zarifova Dilfuza Omon qizi
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Annotatsiya: Maqolada XIX asr klassitsizmidan boshlab, XX asr modernizm oqimlarigacha bo'lgan davrdagi Yevropa tasviriy san'ati, asosiy maktablar (Fransiya, Germaniya, Italiya) va va ularning Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston tasviriy san'atining shakllanishiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda G'arbiy Yevropa badiiy tajribasining mahalliy milliy an'analar bilan sintezi natijasida yuzaga kelgan o'ziga xos uslubiy o'zgarishlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mintaqa rassomlari ijodida Yevropa maktablari metodikasining o'zlashtirilishi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Akademizm, Romantizm, Impressionizm, Modernizm, Avangard, badiiy uslub, Markaziy Osiyo san'ati, badiiy maktab, madaniy sintez, estetik ta'sir, rangtasvir, milliy an'ana, akademik ta'lim

20TH CENTURY EUROPEAN ART SCHOOLS AND THEIR INFLUENCE ON CENTRAL ASIAN ART

Zarifova Dilfuza Omon qizi
National Institute of Fine Arts and Design named after Kamoliddin Behzod

Abstract: The article analyzes European fine arts from 19th-century Classicism to 20th-century Modernist movements, focusing on major schools (France, Germany, Italy) and their influence on the formation of visual arts in Central Asia, particularly Uzbekistan. The research examines unique stylistic transformations resulting from the synthesis of Western European artistic experience with local national traditions. Furthermore, the study highlights the issues of adopting European school methodologies and the development of new aesthetic thinking in the works of regional artists.

Keywords: Academicism, Romanticism, Impressionism, Modernism, Avant-garde, artistic style, Central Asian art, art school, cultural synthesis, aesthetic influence, painting, national tradition, academic education

Kirish. Bugungi zamonaviy sharoitda san'at nafaqat estetik qadriyat, balki madaniy diplomatiya, milliy brend va ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida qaralmoqda. Xalqaro maydonda san'at millatlar o'rtasida madaniy muloqot vositasi, ijtimoiy muammolarni yoritish instrumenti, turizm va iqtisodiyotni rivojlantiruvchi omil, innovatsion kreativ industriyaning asosi sifatida qaralmoqda.

XX asr badiiy san'atda katta o'zgarishlar davri bo'lgan asr hisoblanadi. Akademizm, romantizm, impressionizm, postimpressionizm, kubizm, ekspressionizm, avangard va realizm kabi yo'nalishlar Yevropa badiiy maktablarida shakllangan va butun dunyoning san'atiy fikriga ta'sir ko'rsatgan. Bu yo'nalishlar nafaqat Yevropa, balki Osiyodagi milliy rassomchiliklarni ham yangicha ko'rinishda rivojlanishiga turtki bo'lgan. Shu jihatdan, XX asr birinchi yarmida Yevropa badiiy maktablarining o'ziga xos estetik tarkibi, kompozitsiya, rang uslubi va nazariyasi jahon san'atida yangi tafakkurni shakllantirgan muhim omildir. Shu sababli Yevropa badiiy maktablarining rivojini o'rganish san'at tarixi ilmida xalqaro hamda mintaqaviy trendlarning o'zaro ta'sirini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

XIX-XX asrlar Yevropa tasviriy san'ati tarixida paradigmatic burilishlar davri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur davrda san'at nafaqat estetik hodisa, balki ijtimoiy ong, falsafiy tafakkur va madaniy transformatsiyaning ifoda shakliga aylandi. Akademik klassitsizmning qat'iy me'yorlari asta-sekinlik bilan yemirilib, san'at subyektiv idrok, individual uslub va eksperimental izlanishlar maydoniga aylandi.

XIX asr boshlarida hukmron bo'lgan akademik tizim, xususan Parijdagi Académie des Beaux-Arts faoliyati san'atni klassik ideal va kompozitsion mukammallik tamoyillariga asoslab rivojlantirdi. Biroq sanoat inqilobi, urbanizatsiya, ilmiy kashfiyotlar, fotografiya paydo bo'lishi va ijtimoiy tabaqalanish san'at oldiga yangi vazifalarni qo'ydi.

Realizm, impressionizm va keyinchalik modernizm oqimlari san'atning vazifasini qayta belgilab berdi. Masalan, Gustave Courbet realizmni «haqiqatni tasvirlash» tamoyiliga asoslab, ijtimoiy mazmuni markazga olib chiqdi. Impressionistlar, jumladan Claude Monet tasviriy san'atda yorug'lik va rang muammosini yangi bosqichga olib chiqdi.

XX asr boshlariga kelib esa san'at mutlaqo yangi estetik tilga o'tdi. Kubizm asoschisi Pablo Picasso fazoni dekonstruksiya qildi, abstraksionizm nazariyotchisi Wassily Kandinsky esa rang va shaklni mustaqil ruhiy energiya sifatida talqin etdi.

XIX asr Yevropa madaniyati uchun «buyuk o'zgarishlar asri» bo'ldi. Sanoat inqilobi, urbanizatsiya va ijtimoiy tabaqalanish san'atning vazifasini o'zgartirdi. San'at endi faqat cherkov yoki qirol buyurtmasi emas, balki rassomning ichki dunyosi va ijtimoiy pozitsiyasi ifodasiga aylandi. Parij, Rim, Berlin va Myunxen kabi shaharlar badiiy maktablarining asosiy markazlari sifatida shakllandi.

Shunday qilib, XIX-XX asrlar jahon san'ati tarixi, ayniqsa Yevropa badiiy maktablari uchun tub burilishlar davri bo'ldi. Ushbu davrda shakllangan klassitsizmdan modernizmga bo'lgan uslubiy evolyutsiya nafaqat G'arb olamini, balki Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi tasviriy san'atining poydevorini ham tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda O'zbekiston milliy rangtasvir maktabining jahon miqyosidagi o'rnini belgilashda uning Yevropa badiiy an'analari bilan tarixiy aloqadorligini o'rganish o'ta dolzarb ilmiy muammodir.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi XIX-XX asrlar Yevropa badiiy maktablarining rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish va ularning Markaziy Osiyo (xususan, O'zbekiston) tasviriy san'ati shakllanishidagi rolini ilmiy asoslab berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot jarayonida tarixiy-taqqosiy, formal-tahliliy va ikonografik metodlardan foydalanildi. Shuningdek, Yevropa badiiy maktablarining estetik qarashlari ularning ijtimoiy-madaniy konteksti bilan uzviy bog'liqlikda o'rganildi. Yevropa badiiy maktablarining rivoji, uning milliy san'atimizga ta'siri va ijodkorlari haqida zamonaviy manbalarda turli yondashuvlar asosida izohlanib kelinmoqda. Jumladan, zamonaviy tadqiqotchi S. Alieva o'zining «Modernism in the Periphery» nomli maqolasida Markaziy Osiyo avangardini «chet chekadagi modernizm» emas, balki global modernistik jarayonning teng huquqli va original bir qismi sifatida baholaydi. Uning fikricha, Yevropa tajribasi bu yerda shunchaki takrorlanmagan, balki «mahalliyashtirilgan».¹

So'nggi yillardagi xalqaro konferensiyalarda Markaziy Osiyo san'atiga Yevropa ta'siri postkolonial nazariya prizmasi orqali qayta ko'rib chiqilmoqda. Bu tadqiqotlarda akademik ta'limning kirib kelishi milliy o'zlikni yo'qotish emas, balki milliy san'atning professional darajaga chiqishi va xalqaro miqyosda tanilishi uchun «instrumental vosita» bo'lgani isbotlanadi.²

J. Sharp o'zining «The Nomadic Avant-Garde» nomli tadqiqotida Yevropa badiiy maktablari metodikasining Sharqqa ko'chishini «madaniy transfer» deb ataydi. Muallif Parij maktabi va rus avangardi elementlarining O'zbekiston tasviriy san'atidagi sintezini «G'arb va Sharq estetik dialektikasi» sifatida talqin etadi.³

H. Müller o'zining rangtasvir texnologiyalariga bag'ishlangan maqolasida Impressionizmning Markaziy Osiyo quyoshli iqlimiga adaptatsiyasini fizik va optik

¹ Alieva, S. (2018). Modernism and National Identity in Central Asian Painting. *Journal of Eurasian Studies*, 9(2), 145-158.

² Ismoilova, R. (2022). Revisiting the Synthesis: European Academic Traditions and Oriental Aesthetics. *Central Asian Art Review*, 5(3), 210-225.

³ Sharp, J. (2020). The Nomadic Avant-Garde: Transcultural Exchanges in Early 20th Century Art. *Oxford Art Journal*, 43(1), 89-104.

nuqtai nazardan tahlil qiladi. Uning xulosasiga ko'ra, mintaqa rassomlari Yevropa uslubini «issiq ranglar palitrasini boyitish» orqali yangi bosqichga ko'targanlar.⁴

E. Gombrixning «The Story of Art» asari klassik va zamonaviy oqimlar evolyutsiyasini tushunishda fundamental asos bo'ldi. Shuningdek, G. Vyolfinning «San'at tarixining asosiy tushunchalari» asari orqali uslubiy o'zgarishlarning vizual tahlili amalga oshirildi.

Mintaqada tasviriy san'atning shakllanishi B.V.Vaymarn, L.Rempel va N.Ahmedov kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning ishlarida mahalliy an'analarning Yevropa maktabi bilan to'qnashuvi «madaniy diffuziya» sifatida tahlil qilingan.

Valentina Livova Lakovskaya «Послевоенная станковая живопись Узбекистана. Основные тенденции»⁵ nomli dissertatsiya ishi O'zbekistonda urishdan keyigi davrda (1950-1980 yillar) dastgohli rangtasvirning rivoji, uslublari va tendensiyalarini tahlil qiladi. Lakovskayaning ishi urushdan keyingi O'zbekiston rangtasvirining umumiy tendensiyalarini o'rganadi. Mirjafar Isakovich Mirzaraximovning «Проблемы композиции в современной живописи Узбекистана»⁶ nomli ish kompozitsiya muammolari orqali o'zbek rangtasvirida shakllanayotgan san'at tafakkurini o'rganib muhim ma'lumotlar keltirilgan. Sharaf Barnayevaning «Живопись Самарканда в контексте проблем формирования изобразительного искусства Узбекистана»⁷ maqolasi, Rahmankulova Ifat Abdullayevnaning «Художественная жизнь Самарканда в годы Великой Отечественной войны 1941-45 гг»⁸ nomli avtoreferati va Abbasova Galina Elbrusovnaning «Изобразительное искусство Средней Азии в 1920-е - 1930-е годы: проблема репрезентации советского Востока»⁹ nomli avtoreferatlarida ham muhim ma'lumotlar berilgan. Bu ish aynan rangtasvir naqadar milliy muhitda shakllanganini va lokal-global ta'sirlarni o'rganadi.

Nigora Yadgarovaning «Формирование импрессионизма в живописи Узбекистана XX века»¹⁰ nomli maqolasi va «XX - XXI asr boshlari O'zbekiston

⁴ Müller, H. (2024). The Light of the East: Impressionist Techniques in Arid Climates. *International Journal of Art History and Theory*, 12(1), 45-62.

⁵ Лаковская, Валентина Львовна. Послевоенная станковая живопись Узбекистана. Основные тенденции: диссертация ... кандидата искусствоведения : 17.00.04. - Ташкент, 1984. - 201 с. : ил. + Прил. 2 Тома (59 с., 109 с., : ил.).

⁶ Мирзарахимов, Мирджафар Исакович. Проблемы композиции в современной живописи Узбекистана: диссертация ... кандидата искусствоведения : 17.00.04. - Ташкент, 1984. - 159 с. : ил. + Прил. (124 с. : ил.).

⁷ Шараф Барнаева. Живопись Самарканда в контексте проблем формирования изобразительного искусства Узбекистана//XXI АСР – ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ЁШЛАР АСРИ мавзусидаги республика илмий ва илмий-техник анжуман 30 март 2018 йил

⁸ Рахманкулова И. Художественная жизнь Самарканда в годы Великой Отечественной войны 1941-45 гг. Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.и. – Ташкент, 1990. – 27 с.

⁹ Аббасова Г. «Изобразительное искусство Средней Азии в 1920-е – 1930-е годы: проблема репрезентации советского Востока» Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.н. – Москва, 2023. – 24 с.

¹⁰ Ядгарова Нигора Акмаловна (2020). ФОРМИРОВАНИЕ ИМПРЕССИОНИЗМА В ЖИВОПИСИ УЗБЕКИСТАНА XX ВЕКА. *Central Asian Journal of Art Studies*, 5 (4), 114-124. doi: 10.47940/cajas.v5i4.301.

rangtasvirida imprissionizm tendensiyalari» nomli avtoreferatida Yevropa uslublarining (impressionizm) O'zbekistonga kirib kelishi jihati yaqindan tahlil qilingan.

Nigora Rahimova Axmedovaning «Живопись республик Центральной Азии в поисках обновления художественного языка (1960-е годы)»¹¹ nomli maqolasi ham muhim manbaa sifatida o'rganildi. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo respublikalarida rangtasvirning transformatsiya jarayoni 1960 yillardagi tarixiy-ijtimoiy o'zgarishlar kontekstida tadqiq qilinadi.

Dilzoda Alimkulovaning «Взгляд на изобразительное искусство Узбекистана»¹² nomli maqolasi ham o'rganildi. Ushbu maqolada muallif ta'kidlaydiki, O'zbekistonda tasviriy san'atning turlari va janrlarining rivojlanishi asosan XX asrda shakllangan va rivojlangan, shuningdek, XX asrdagi O'zbekistonning an'anaviy badiiy madaniyati tarixiy, siyosiy, madaniy, diniy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni aks ettirgan. XX asr O'zbekiston tasviriy san'atini o'rganishda har bir o'n yillikni alohida tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, XX asr davomida milliy rangtasvir masalalariga oid keng izlanishlar majmui shakllangan bo'lib, ko'p sonli monografiya, albom, maqola va kataloglar nashr etilgan. Endigina rivojlana boshlagan O'zbekiston dastgohli rangtasvir san'ati san'atshunoslar V.Chepelev, M.Kolin, B.Veymarnning tadqiqotlarida o'z aksini topdi. Rassomlar safi kengayib tasviriy san'at rivojlana boshlagan davr L.A.Jadovanning «Современная живопись Узбекистана»¹³ va M.Xalaminskayaning «Искусство молодых»¹⁴ kitoblarida nafaqat rangtasvir balki grafika va haykaltaroshlik san'ati O'rta Osiya respublikalari misolida yoritilgan. Bu borada, R.Toqtosh va D.Saidova izlanishlari xam muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur monografiyalarda o'tgan asrning 70-yillarigacha davom etuvchi tasviriy san'at rivoji, ijodiy ko'rgazmalardan tortib badiiy ta'lim sohasigacha bo'lgan jihatlar qamrab olingan. San'atshunos olimlar T.Maxmudov, N.Abdullayev, A.Umarov, L.Shostko ilmiy tadqiqotlarida O'zbekiston tasviriy san'ati rivojlanish bosqichlari, badiiy jarayon va davr zamonaviy rassomlari ijodiga batafsil nazariy munosabat bildirilgan.¹⁵

Yuqorida tilga olingan tadqiqotchilar mintaqa tasviriy san'atida kechgan murakkab jarayonlarga mantiqiy javob topishga harakat qilishgan. Biroq mafkuraviy

¹¹ Ахмедова Нигора Рахимовна (2022). Живопись республик Центральной Азии в поисках обновления художественного языка (1960-е годы). Искусство Евразии, (3 (26)), 64-73. doi: 10.46748/ARTEURAS.2022.03.005

¹² Алимкулова Д. Взгляд на изобразительное искусство Узбекистана // Взгляд в прошлое. 2021 № SI-3

¹³ Жадова Л. Современная живопись Узбекистана. - Ташкент, 1963. - 111 с.

¹⁴ Халаминская М. Искусство молодых. - Москва, 1967. - 164 с.

¹⁵ Махмудов Т.М. Эстетический анализ основных тенденций развития современного искусства Узбекистана. Автореферат диссертации доктора философских наук. - М., 1979. - 32 с.; Абдуллаев Н. Пейзажная живопись Узбекистана. Альбом. - Ташкент: Изд. литературы и искусства им. Г.Гуляма, 1975. - 44 с.: ил.; Саидова Д. Историко-революционный жанр в живописи Узбекистана. - Ташкент, 1977. - 160 с; Умаров А., Шостко Л. Искусство Советского Узбекистана // Искусство, 1968, № 4. - С. 6-12.;

muhit ijodiy izlanishlarni bir tomonlama talqin qilinishiga olib keldi. Maqolada ilmiy ishlarni tahlil qilingan holda ulardan keng foydalanildi.

Asosiy qism. XIX asr Yevropa san'atida Akademizm va Klassitsizm: Estetik me'yorlar kurashi

XIX asr boshlarida Yevropa san'at maydonida Fransiya Tasviriy san'at akademiyasi yetakchilik qildi. Ushbu davrda Klassitsizm nafaqat uslub, balki davlat darajasidagi badiiy mafkura sifatida shakllandi. Jak-Lui David va uning shogirdi Jan-Ogust-Dominik Engr asarlarida «ideal go'zallik» tushunchasi antik davr namunalari tayanib tahlil qilindi.

Akademik maktabning asosiy xususiyati chiziqning rangdan ustunligi edi. Akademistlar fikricha, rasmning konstruksiyasi va anatomik aniqligi uning ranglar jilosidan muhimroq hisoblangan. Bu maktab o'zidan keyingi barcha yo'nalishlar uchun poydevor vazifasini o'tadi, chunki u rassomdan yuksak texnik mahorat va intizomni talab qilar edi. Biroq, asr o'rtalariga kelib, Akademizmning qat'iy qoidalari hayotiy haqiqatdan uzilib qolganligi sababli tanqidga uchray boshladi.

Eng keng qo'llanilgan janrlar tarixiy, mifologik va diniy syujetlar. Portret, peyzaj va natyurmort «past» janrlar hisoblangan. Rassomlar tabiatdan emas, balki antik haykallardan nusxa ko'chirish orqali mahorat oshirishgan.

Fransuz rassomi Jak-Lui David ushbu maktabning eng yirik namoyandasi hisoblanadi. Uning asarlari, xususan, «Horatiylarning qasamyodi» va «Sokratning o'limi», san'atda erkaklik g'ururi, vatanga sadoqat va qat'iyat timsoliga aylandi. Kompozitsiyon jihatidan Davidning asarlarida sahna teatrdagi kabi aniq bo'lingan, fon esa ikkinchi darajali bo'lib, asosiy e'tibor haykalmonand shakllarga qaratilgan.



Horace Qasamyodi. 1784. Luvr, Parij



Sokratning O'limi. 1787

Davidning shogirdi J.O. Engr Akademizmning so'nggi buyuk ustasi edi. U chiziqning mutlaqligini himoya qilib, rangga urg'u beruvchi Romantiklar bilan umrbod kurashdi. Biroq, XIX asrning ikkinchi yarmi sanoat va ilm-fan rivoji davrida bu qat'iy qoidalar hayotdan uzilib qoldi. Klassitsizm va Akademizm Yevropa san'atiga yuksak texnik mahorat va kompozitsiya qoidalarini meros qoldirdi. Biroq, ularning «ideal go'zallik»ka o'ta yopishib qolishi san'atning erkin rivojlanishiga to'sqinlik qila boshladi. Bu esa XIX asr oxiridagi «San'at inqilobi» uchun zaruriy turtki bo'ldi.

O'zbekistonda Akademik ta'lim tizimining o'rni haqida gapiradigan bo'sak, Yevropa akademik maktabi asosan Rossiya orqali O'zbekistonga natura bilan ishlash, chiziqli perspektiva va moybo'yoq texnikasini olib kirdi. P.Benkov va L.Bure kabi

rassomlarning Samarqand va Toshkentda ochgan studiyalari o'zbek rassomlik maktabiga Yevropa realizmi asoslarini singdirdi.

O'zbek rassomlari asrlar davomida hukmron bo'lgan tekis tasvirli miniatyuradan voz kechib, hajmli va fazoviy tasvirlashga o'tdilar.

Akademizmning tanazzuli uning o'ta konservativligida bo'ldi. Ular zamonaviy hayotni, ko'chadagi oddiy odamlarni va texnik taraqqiyotni san'atga kiritishni rad etishdi. Bu esa tez orada yosh rassomlarning isyoniga avval Romantizm, keyin esa Realizm oqimlarining paydo bo'lishiga olib keldi.

1820-1850 yillar oralig'ida san'atda hissiyotlar portlashi Romantizm yuzaga keldi. Ejen Delakrua va Teodor Jeriko kabi ustalar aqlga emas, balki instinkt va ehtirosga tayandilar. Ularning polotnolari dinamika va dramatik ranglar gammasi bilan ajralib turadi. Bu yo'nalish san'atga subyektiv qarashni va rassomning ichki dunyosini olib kirdi. Asrning ikkinchi yarmi esa Realizm bayrog'i ostida o'tdi. Gyustav Kurbe va Jan-Fransua Mille kabi rassomlar asoschilik qildi va ular antik xudolarni emas, balki oddiy dehqonlar, ishchilar va kundalik hayotning shafqatsiz haqiqatlarini tasvirlashni boshladilar. Bu davrda san'at ilk bor ijtimoiy tanqid quroliga aylandi.

Jumladan, Ejen Delakrua Romantizmning yetakchisi hisoblanib, uning 1830-yildagi «Xalqni yetaklayotgan erkinlik» asari nafaqat Fransiya inqilobining ramzi, balki yangi san'at uslubining manifesti edi. Delakrua ranglar orqali dinamikani va emotsional portlashni ko'rsata oldi. Teodor Jerikoning «Meduza soli» asarida nafaqat dengiz falokati, balki insoniyatning umid va umidsizlik o'rtasidagi kurashi mahorat bilan tasvirlangan. K.D. Fridrix, U. Terner kabi romantik rassomlar tabiatni shunchaki fon emas, balki tirik, xavfli va sirli kuch sifatida tasvirlashgan.

Realizm ustalaridan Gyustav Kurbe akademiklarning «ideal qahramonlari»ni rad etdi. «Tosh maydalovchilar» va «Ornandagi dafn marosimi» asarlarida u oddiy ishchilarni va qishloq hayotini monumental darajaga ko'tardi. Uning mashhur gapi: «Menga farishtani ko'rsating, men uni chizib beraman», ya'ni u faqat ko'zi bilan ko'rib turgan moddiy dunyoni chizishga chaqirdi. Jan-Fransua Mille dehqonlar hayotining shoiri sifatida tanildi. «Boshoq teruvchilar» asari orqali u qishloq mehnatining og'irligi va ulug'vorligini ko'rsatdi.

Onore Daumye esa Karikatura va grafikadan foydalanib, jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklarni, boylar va kambag'allar o'rtasidagi farqni fosh qildi. Garchi bu ikki o'qim bir-biriga zid ko'rinsa-da biri xayolga, ikkinchisi faktga tayanadi, ularning umumiy dushmani qotib qolgan akademizm edi. Romantizm san'atga ruhni, realizm esa haqiqatni qaytardi. Bu ikki oqim bo'lmaganida, XX asrning erkin va tajribaviy san'ati ya'ni modernizm paydo bo'lishi imkonsiz bo'lardi. Ular san'atning yuqori tabaqaga xizmat qilish funksiyasini insoniyatga xizmat qilish ga o'zgartirdilar desak mmubolag'a bo'lmaydi.

XIX asrning oxirgi choragida ya'ni 1870-yillar Yevropa san'atida chinakam o'zgarish yuzaga keldi. Bir guruh yosh rassomlar akademizmning qorong'u ustaxonalaridan chiqib, plenerga ya'ni ochiq havoda ishlashga yo'l oldilar. Bu harakat keyinchalik impressionizm fransuzcha impression - taassurot nomini oldi.

Impressionistlar uchun ob'ektning o'zi emas, balki o'sha lahzada uning ustiga tushayotgan yorug'lik va havo muhiti muhim hisoblangan. Rassomlar ranglarni palitrada aralashtirmay, to'g'ridan-to'g'ri polotnoga qisqa va aniq surtmalar (mazoklar) bilan tushira boshladilar. Uzoqdan qaraganda, bu ranglar tomoshabinning ko'z oldida yaxlit tasvirga aylanadi. Buni ko'plab rassomlar asarlarida ko'rishimiz mumkin. Masalan, Klod Mone ushbu yo'nalish asoschisi hisoblanib uning «Taassurot. Chiquvchi quyosh» asari oqimga nom berdi. Monening ijodida bitta ob'ektni masalan, Ruandagi ibodatxona yoki pichan g'aramlarini kunning turli vaqtlarida chizish orqali yorug'likning o'zgaruvchanligini ko'rsatish asosiy maqsad bo'lgan.

Agar Mone tabiat ustasi bo'lsa, Ogust Renuar hayot quvonchini, yoshlik va go'zallikni tarannum etdi. Uning asarlarida quyosh nurlari daraxt barglari orasidan o'tib, insonlar kiyimida «o'ynaydi». Edgar Degas esa harakat ustasi edi. Uning balerinalar, ot poygalari va shahar hayoti tasvirlangan asarlari «tasodifiy kadr» effektini beradi, go'yo fotosurat olingandek kompozitsiya qirqilgan bo'ladi.

Yevropa impressionistlarining «yorug'lik va rang» nazariyasi O'zbekiston tabiati uchun juda mos keldi. Pavel Benkov ijodida biz yevropacha impressionistik uslubning sharqona hayot tarzi bilan uyg'unligini ko'ramiz. Uning asarlaridagi hovuz bo'yidagi choyxonalar, keksa nuroniylar va yorqin kiyimlar impressionizmning «lahzani muhrlash» tamoyiliga tayanadi.



Klod Mone Taassurot. Ko'tarilgan quyosh. 1872. Marmottan-Monet Muzevi, Parij



Vinsent Van Gog "Yulduzli tun". 1889. Zamonaviy san'at muzevi, Nyu-York Shahri

1880-yillarning oxiriga kelib esa, ba'zi rassomlar impressionizmning «o'ta yumshoqligi» va shaklning yo'qolib borishidan norozi bo'la boshladilar. Ular san'atga chuqur mazmun va qat'iy strukturani qaytarishni xohladilar va bunga erishdilar. Bunga misol qilib quyidagi rassomlarni ko'rib chiqishimiz mumkin. Vinsent van Gog rangni borliqni tasvirlash uchun emas, balki o'zining ichki iztirobi va hayajonini ko'rsatish uchun ishlatdi. «Yulduzli tun» asaridagi burama chiziqlar va qalin bo'yoq qatlami uning ruhiy holatidan darak beradi.

Pol Sezann esa tabiatdagi hamma narsani geometrik shakllar ya'ni shar, konus, silindr orqali ko'rishga chaqirdi. Uning bu qarashi keyinchalik Kubizm oqimining


paydo bo'lishiga asosiy turtki bo'ldi. Pol Gogen sivilizatsiyadan qochib, Taiti orollariga ketdi. Uning asarlarida ranglar tekis va yorqin, mavzular esa falsafiy va ramziy ma'noga egadir. Ushbu maktabning ahamiyati shundaki, u san'atni «nima chizilgan?» degan savoldan butunlay xalos qildi. Endi rassom: ob'ektini emas, o'zining sub'ektiv qarashini chizish huquqini oldi.

XX asrning ikkinchi yarmi va mustaqillik davrida Yevropa postmodernizmi (installatsiya, konseptualizm) o'zbek san'atkorlari (masalan, Vyacheslav Oxunov) ijodiga ta'sir qildi. Bugungi kunda ham Yevropa va AQSh badiiy akademiyalarining o'qitish metodlari O'zbekiston Tasviriy san'at va dizayn institutining o'quv dasturlari negizida yotibdi.

Impressionizm va Postimpressionizm XIX asrning klassik an'alariga yakun yasadi. Agar Impressionistlar vizual idrok inqilobini qilgan bo'lsalar, Postimpressionistlar konseptual idrok inqilobini amalga oshirdilar. Bu esa XX asrning buyuk Modernizm va Avangard davriga yo'l ochdi.

XX asr boshiga kelib, Yevropa badiiy maktablari misli ko'rilmagan inqirozni va shu bilan birga yangilanishni boshdan kechirdi. Fotoapparatning ixtiro qilinishi va psixologiya fanining rivojlanishi rassomlarni «borliqni shunchaki nusxalash»dan voz kechishga majbur qildi. XX asr va mustaqillik davrida Yevropa postmodernizmi o'zbek san'atkorlari masalan, Vyacheslav Oxunov ijodiga ta'sir qildi. Bugungi kunda ham Yevropa va AQSh badiiy akademiyalarining o'qitish metodlari O'zbekiston Tasviriy san'at va dizayn institutining o'quv dasturlari negizida yotibdi.

XX asrning 20-30-yillarida Yevropada shov-shuv bo'lgan Kubizm, Futurizm va Fovizm oqimlari O'zbekistonda mutlaqo yangi ko'rinish oldi. Bu davr rassomlari Yevropa tajribasini shunchaki ko'chirmasdan, uni milliy ruh bilan boyitdilar. Ular: Aleksandr Volkov Yevropa kubizmini o'zlashtirib, uni geometrik naqshlar bilan bog'ladi. Uning «Anorli choyxona» asari Yevropa uslubiy inqilobining Markaziy Osiyo falsafasi bilan sintezidir. Usto Mo'min (Aleksandr Nikolaev) esa Italiya Uyg'onish davri rassomlari (Sandro Botticelli) uslubini o'zbek yigitlari va qizlarining lirik siymolariga ko'chirdi. Bu san'atda «Sharqona intellektualizm»ni yuzaga keltirdi.



Aleksandr Volkov. Anorli choyxona. 1924



Nikolayev Aleksandr. Bahor. 1923

Xulosa. Yevropa badiiy maktablari O'zbekiston san'ati uchun «begona» emas, balki uning zamonaviy qiyofasini yaratishda katalizator vazifasini o'tadi. Agar Yevropaning ratsional texnikasi va Sharqning emotsional-dekorativ kuchi

birlashmaganda, bugungi kunda dunyo tan olgan betakror Nukus shaxridagi «Savitskiy muzeyi» fenomenidagi asarlar dunyoga kelmagan bo‘lar edi.

Mazkur davr san‘at tarixida modern tasviriy tafakkurning shakllanish bosqichi sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alieva, S. (2018). Modernism and National Identity in Central Asian Painting. *Journal of Eurasian Studies*, 9(2), 145-158.
2. Sharp, J. (2020). The Nomadic Avant-Garde: Transcultural Exchanges in Early 20th Century Art. *Oxford Art Journal*, 43(1), 89-104.
3. Ismoilova, R. (2022). Revisiting the Synthesis: European Academic Traditions and Oriental Aesthetics. *Central Asian Art Review*, 5(3), 210-225.
4. Müller, H. (2024). The Light of the East: Impressionist Techniques in Arid Climates. *International Journal of Art History and Theory*, 12(1), 45-62.
5. Savitsky, I. (Re-edition 2021). *The Desert of Forbidden Art: The Collection of the Nukus Museum*. Heritage Publications.
6. Аббасова Г. «Изобразительное искусство Средней Азии в 1920-е - 1930-е годы: проблема репрезентации советского Востока» Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.н. - Москва, 2023. - 24 с.
7. Ядгарова Нигора Акмаловна (2020). ФОРМИРОВАНИЕ ИМПРЕССИОНИЗМА В ЖИВОПИСИ УЗБЕКИСТАНА XX ВЕКА. *Central Asian Journal of Art Studies*, 5 (4), 114-124. doi: 10.47940/cajas.v5i4.301.
8. Ахмедова Нигора Рахимовна (2022). Живопись республик Центральной Азии в поисках обновления художественного языка (1960-е годы). *Искусство Евразии*, (3 (26)), 64-73. doi: 10.46748/ARTEURAS.2022.03.005
9. Алимкулова.Д Взгляд на изобразительное искусство Узбекистана // Взгляд в прошлое. 2021 № SI-3
10. Лаковская, Валентина Львовна. Послевоенная станковая живопись Узбекистана. Основные тенденции: диссертация ... кандидата искусствоведения : 17.00.04. - Ташкент, 1984. - 201 с. : ил. + Прил. 2 Тома (59 с., 109 с., : ил.).
11. Махмудов Т.М. Эстетический анализ основных тенденций развития современного искусства Узбекистана. Автореферат диссертации доктора философских наук. - М., 1979. - 32 с.
12. Zarifova, D. (2023). TEACHING TECHNOLOGY OF THE TOPIC OF PORTRAIT OF THE HUMAN HEAD IN PAINTING. *Modern Science and Research*, 2(10), 391-393.
13. Zarifova, D. O. qizi. (2023). SHARQ GRAFIKA SAN‘ATIDA MAISHIY JANRNING O‘RGANILISHI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(9), 57-62. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1259>